RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING SINERGETIKA USULI

Ermatov Musojalil Komilovich
Alfraganus universiti, Moliya kafedrasi dotsienti, i.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17680472

Annotasiya. *Maqolada metoiqtisodiyot kapital bozori rivojlantirishning sinergetik usullari va u bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilingan. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning IT texnologiyalari rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Jahon iqtisodiy tarmoq faoliyatidagi barcha IT yo‘nalishlari geografik va milliy hududlarida kengayishi natijada transmilliy korporatsiyalar shakllanishi, ular xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini egallash jarayonlari ilmiy kuzatuvlar olib borildi. O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital bozorini rivojlantirish natijasida bir mintaqada joylashgan kapital oqimi boshqa mintaqaga ko‘chishi kuchayish ehtimollari o‘rganilgan.*

Metodologiyasi: *Maqolada mamlakatimiz va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital bozori tadrijiy rivojlanishining sinergetik omillari qiyosiy tahlil etilgan. Ilmiy izlanishlar doirasida tizimli tahlil, guruhlash, iqtisodiy jarayonlarning induksiya va deduksiya holatlari, mavjud ma’lumotlarning statistik va solishtirma tahlili, tafakkur va g‘oyalarga abstrakt-mantiqiy yondashuv usullaridan foydanildi. Maqola mavzusiga doir fikr va mulohazalarning dudiktiv rivojlanishi asos qilib olingan. Jahon kapital bozoridagi davlatlar qimmatli qog’ozlar ulushi tadrijiy solishtirish usullaridan foydalanilgan.*

Natijalar: *Tadqiqot muallifi shunday xulosaga keladi: Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarda yaxlit strategiyasini shakllantirishni taklif etadi. Uning samarali infratuzilmasi shakllanishida asosiy e’tiborni ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish dolzarb muammoligini asoslaydi. Kapital bozorni kengaytirishga qaratilgan amaliy harakatlarni yanada faollashtirish, korporativ boshqaruv tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab etadi. Kapital bozorini tartibga solishda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish va ushbu aloqalar IT texnologiyalardan foydalanish kabi masalalar alohida ustuvorlik kasb etishini ta’kidlab o‘tgan.*

Yangiligi: *Hozirda kapital bozorida ommaviy foydalanuvchilar uchun ushbu axborot resurslaridan interfaol foydalanishni ta’minlovchi texnologiyalar ishlab chiqilgan. Unda IT axborot tizimlari funktsiyalarini kengaytirish, ma’lumotlar bazalarini turli ma’lumotlar tuzilmasini ochiqlash tizimi yaratilgan. Ko‘p ob’ektli hujjatlar va gipermatnli muhitlarni yaratish usullari belgilangan. Xususan gipermatnli ma’lumotlar bazalarini yaratish va yuritish texnologiyalari bilan parallel ravishda qayta ishlash tadbirlari ishlab chiqilgan.*

Iqtisodchi mutahassislari tayyorlovchi bilim yurtlarida sinergetika usulidan foydalanish, yani, serqirra ilm toliblarini tayyorlashni taklifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Raqam, kapital, texnologiya, bozor, sinergetika, IT.*

Аннотация: *В статье исследуются синергетические методы развития метаэкономического рынка капитала и связанные с ним тенденции развития цифровой экономики. Изучаются показатели развития ИТ-технологий экономически развитых стран. В результате расширения всех направлений ИТ в мировом экономическом секторе на*

географические и национальные территории проводятся научные наблюдения за процессами формирования транснациональных корпораций и их завоевания международных рынков. Изучаются возможности увеличения миграционных потоков капитала из одного региона в другой в результате развития рынка капитала в Узбекистане и других странах цифровой экономики.

Методология: *В статье проводится сравнительный анализ синергетических факторов постепенного развития рынка капитала в цифровой экономике нашей страны и развитых стран. В рамках научного исследования использовались методы системного анализа, группировки, индукции и дедукции экономических процессов, статистического и сравнительного анализа имеющихся данных, абстрактно-логический подход к мышлению и идеям. В основе статьи лежит дедуктивное развитие мыслей и рассуждений по теме. Использованы методы постепенного сравнения доли ценных бумаг стран на мировом рынке капитала.*

Результаты: *Автор исследования приходит к следующему выводу: предлагается сформировать комплексную стратегию мер по развитию рынка капитала в нашей стране. Основное внимание в формировании его эффективной инфраструктуры обусловлено актуальной проблемой ускоренного развития вторичного рынка ценных бумаг. Это требует дальнейшей активизации практических действий, направленных на расширение рынка капитала, совершенствование системы корпоративного управления на основе передового зарубежного опыта. Отмечено, что в регулировании рынка капитала особое значение имеют такие вопросы, как развитие международных отношений с экономически развитыми странами и использование в этих отношениях IT-технологий.*

Новизна: *В настоящее время на рынке капитала развиваются технологии, обеспечивающие интерактивное использование этих информационных ресурсов для публичных пользователей. Это позволило создать систему расширения функций информационных систем, позволяющую создавать различные информационные структуры баз данных. Определены методы создания многообъектных документов и гипертекстовых сред. В частности, разработаны средства параллельной обработки с технологиями создания и ведения гипертекстовых баз данных.*

Предлагается использовать синергетический метод в образовательных учреждениях, готовящих экономистов, то есть для подготовки студентов с широким спектром знаний.

Ключевые слова: *Цифр, капитал, технология, рынок, синергетика, ИТ.*

Kirish

XIX asr sanoat asri, XX asr “Atom” asri deya nom oldi. XXI asr esa, inson aqliy salohiyatining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalar asri, ya’ni IT asri hisoblanmoqda. Zamonamiz talabi har bir ongli shaxslardan kasbi va mutaxassislik yunalishdan qat’iy nazar IT texnologiyasidan foydalanishini taqozo etmoqda. Har bir jismoniy shaxsdan nafaqat bir sohada layoqatli mutaxassis, balki, serqirra ilm yo‘nalishlarining etakchi mutaxassisligini, insoniyat rivojlanishining istiqboldagi yo‘nalishlarini aniqlay oladigan o‘tkir fikrli mutaxassis bo‘lishini talab etmoqda. Shu bois, bunday mutaxassislarni tayyorlash dolzarb muammoga duch kelmoqda. Ushbu xarakat jarayonidan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun oliy ta’lim tizimidagi iqtisodiyot mutaxassislarni tayyorlashning yangi ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, yanada

interfaol bo‘lgan o‘qitish usullarini joriy etilishi ijtimoiy vazifalarining markaziy asosiga aylandi. Bu kabi o‘quv dasturlarni tashkil etish jarayonidagi talablar sinergetik yondashuvlarga duch kelmoqda.

Sinergetika atamasi yunon tilida “*Sinergia*” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida hamkorlik va hamjihatlik ma’nolarini anglatadi. Iqtisodiyot tilida esa, muayyan tizimni tashkil etish, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqaruv nazariyasining markazi hisoblanib, undan ochiq, tashqi muhit bilan uzviy yoki informatsiya almashinuvlari ostidagi murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini tadqiq etishda unumli foydalanish demakdir. Bunda sinergetikaning tartibsizlik, beqarorlik, nochiziqlilik kabi bir qancha tushunchalari yordamida o‘rganilayotgan obyektning muayyan qonuniyatlardan og‘ish jarayonlari va buning sabablari, tadrijiy evolyutsiyasi va ayni vaziyatdagi o‘zgarishlari tadqiq etiladi[1].

Bizningcha sinergetika atamasi iqtisodiyot tildagi tushunchasi “hamjihatlik” ma’nosini bildirib, unda belgilangan vazifaning tashkiliy tuzilmasining yaxlit bir butunlikda umumlashtirish, uni tashkil etuvchi elementlarining o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblikdagi munosabatlar majmui hisoblanadi. Biz fikrlarni asoslash uchun quyida iqtisodchi olimlar izlanishlariga doir adabiyotlarni tahlil etamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

S. N. Sayfullayev o‘zining raqamli iqtisodiyot sharoitida fond bozorining mazmuni, iqtisodiyotdagi ahamiyati va o‘rni nomli maqolasida:

Raqamli iqtisodiyot sharoitida fond bozori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi ekanligini izohlab, uning ahamiyati va o‘rni sezilarli darajada oshib borayotganligini bildiradi. U raqamli texnologiyalar fond bozorining rivojlanishiga katta ta‘sir ko'rsatayotganligi va faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilayotganligini asoslagan. Shu bilan birga raqamli iqtisodiyotda fond bozorining ahamiyatini yanada oshirishda quyidagi jihatlarini inobatga olish lozimligini bildirgan. Xususan,

–innovatsiyalarni rag‘batlantirishda fond bozori yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni moliyalashtirishga imkon yaratib, tadbirkorlikni va texnologik rivojlanishni tezlashtirish zarur;

–global integratsiya sharoitida raqamli texnologiyalar orqali fond bozorlari xalqaro darajada birlashib, global investitsiyalar oqimini oshirish va milliy iqtisodiyotlarning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvini ta’minlash joiz;

–samaradorlik va likvidlik ta’minlanishida elektron savdo platformalari, sun‘iy intellekt va algoritmik treyding savdo jarayonlarini tezkor va samarali qilish, bu esa resurslarning optimal taqsimlanishiga yordam berishini takidlaydi;

–xavfsizlikni ta’minlash va shaffoflik faoliyatini amalga oshirilishida blokcheyn texnologiyasi orqali qimmatli qog‘ozlarning xavfsizligi va shaffofligini ta’minlashda investorlarga bozorga ishonch bilan kirish imkonini berishini;

–moliyaviy barqarorlik ta’minlanishida fond bozorlari turli moliyaviy vositalar va diversifikatsiyalashgan portfellar orqali moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynashini bildirgan[1-745].

Ismailov X. M. fikriga ko‘ra iqtisodiyot tarmoqlarining barchasida raqamli iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada o‘sib kelmoqda, bu o‘z navbatida sohalarda raqamli transformatsiyaning oshishiga olib keladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatning YaIMdagi ulushida raqamli iqtisodiyotning oshib borayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz [2-575]

Nurmuxamedov A.A. Rivojlangan mamlakatlarning ilgor tajribasi, samarali faoliyat ko‘rsatuvchi fond bozori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri. Ular rivojlangan fond bozori korxonalarga katta hajmdagi sarmoya talab qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishda risklarni munosib baholash va diversifikatsiyalash, mablag‘larni samarali jalb qilish imkonini bermoqda. Fond bozori hozirgi kunda iqtisodiy tendentsiyalarning indikatori bo‘lib xizmat qilmoqda, bu esa manfaatdor tomonlarga (shu jumladan, hukumatga) o‘zining harakatlar strategiyasini ishlab chiqish va samarali amalga oshirilishiga imkon beradi[3-844]

Xorijiy olim Kuhn T.A. esa, Ilm-fan tarraqqiyoti tinimsiz o‘zgarib boruvchi ob’ektiv reallik. Albatta, uni tadqiq etish usullari va metodlari ham shunga muvofiq tarzda o‘zgarib va almashinib turadi. Fandagi inqilob obyektga bo‘lgan yondashuvning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi,[4-85].

Bunday ob’yektlarga bo‘lgan yondashuvning o‘zgarishi natijasida uning hali o‘rganilmagan jihatlari to‘la va teran ochilishi mumkin. Bu esa fanda katta yutuq va inqilobiy o‘zgarishlar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Iqtisodiyotdagi sinergetik rivojlanish jamiyat taraqqiyotiga sabab bo‘ladi. E’tirof etilgan go‘ya va fikrlar jamlanmasining tahlil va natijalarning bayoniga quyida to‘xtalamiz.

Tahlil va natijalar

Bugungi kundagi dunyo hamjamiyati iqtisodiy infratuzilma sohasida shiddatli rivojlanish va o‘sish kuzatilayotgan davr bo‘lmoqda. Bu raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi bilan bog’liq bo‘lib, u IT texnologiyalarini yanada rivojlanishiga olib kelmoqda.

IT texnologiyalari rivojlanishining natijasi, jahon xo‘jaligi faoliyatidagi barcha yo‘nalishlari geografik milliy hududlarida kengayib, natijada transmilliy korporatsiyalar shakllanib, ular xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini egallamoqda. Mamlakatlar raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital bozorini rivojlantirishi natijasida bir mintaqada joylashgan kapital oqimi boshqa mintaqaga ko‘chishi kuchaymoqda. Unda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning milliy chegaralardan chiqib transmilliy hududlarda faoliyat yuritilishida IT sohasidagi keskin o‘zgarishlari o‘z aksini topmoqda. Har bir tarmoq sohadagi texnologik yangiliklar va mavjud imkoniyatlar raqamlashtirish oqibatida kapital mablag’larining bir hududdan boshqa xududga cheklovlarsiz ko‘chishi kapital bozorida yangi imkoniyatlar, yangi sharoitlar va yanada yangi tamoyillarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Xalqaro maydonda kapital bozoridagi talab va taklifni tez o‘zgarib turishi iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanishni talab etmoqda. So‘nggi yillarda moliya bozorining tarkibiy ulushini moliyaviy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning qimmatli qog’ozlar bozoridagi ulushi iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar ulushlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni saqlab qolmoqda.

1-chizma. Kapital bozoridagi davlatlar qimmatli qog’ozlari ulushi[1]

[1]*Internet ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.*



Mazkur moliyaviy tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyo kapital bozoridagi mamlakatlarning eng yuqori ko‘satkich ulushu Amerika Qo‘shma Shtatlari davlatiga tegishli bo‘lib, uning jahon bozoridagi qimmatli qog’ozlari ulushi 40 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, jahon xo‘jaligi daromadlarining 35-40 foizi Amerika tadbirkorlari foydasini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

Qolgan davlatlar Yaponiya 8 foizni, Xitoy va Gongkong 7 foizni, Angliya 4 foizni, Germaniya va Fransiya 3 foizni tashkil etmoqda. Qolgan davlatlarning ulushi esa 28 foizni tashkil etmoqda.

Masofaviy tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar moliya tizimida ilg’or IT texnologiyalari qo‘llanilganligini, ulardagi iqtisodiy infratuzilmasining deyarli barcha sohalarida insoniyat rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlari belgilay oladigan va barcha sohalarda yetuk mutaxassislarning ilg’or tajribaga ega ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Shungdek, ushbu davlatlarda talaba yoshlarni kasbga tayyorlash dasturlari jarayoni va unga qo‘yilgan talablar sinergetik yondashuvlar asosida tashkil etilgan, shu omillarga ko‘ra iqtisodiyoti yuksalgan davlatlarning moliya bozori rivojlangan uning natijasini yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan asoslanadi.

Albatta, jahon iqtisodiyot tarkibidagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari davlatlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan belgilanadi. Yalpi ichki mahsulot o‘sishi, har qaysi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Lekin barcha mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari bir hilda emas, ularning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va aholining ilmiy tafakkuri va bilim darajasiga ko‘ra turli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini bayon etadi.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida davlatlarning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining odatda to‘rt turi e’tirof etilmoqda. Ular quyidagilar:

1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning bir xil me’yorda o‘sish ko‘rsatkichi bo‘lib, ular AQSh va Evropa davlatlari hisoblanadi;
2. Iqtisodiy o‘sishda mo‘jiza ko‘rsatayotgan mamlakatlar bo‘lib, ular Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, O‘zbekiston davlatlaridir;
3. Iqtisodiy o‘sishning fojiasiga ega mamlakatlar bo‘lib, ular markaziy Afrika davlatlaridir;
4. Iqtisodiy o‘sish darajasi yo‘q mamlakatlar ham mavjud bo‘lib, unga Zimbabve davlati kiradi [5-65].

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasidagi iqtisodchi olimlarning ikkinchi bashoratlari 2023 yilga kelib dunyo yalpi ichki mahsulotining qariyib chorak qismi raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘gri kelishini e’lon qildi. Bunday sharoitda yangi O‘zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati yanada dolzarb muammoga etaklaydi. Jahon statistik manbalarda iqtisodiy rivojlantirishda dunyoda

etakchilik qilib kelayotgan davlatlar AQSh va Angliya davlatlarida raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 12-15 foizni tashkil qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2-chizma. Davlatlar yalpi ichki mahsulotining o‘sish dinamikasi



2013-2021 yillardagi yillik va o‘rtacha yillik o‘sish bo‘yicha Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu iqtisodiy tahlil jarayonlari quyidagi manzarani ko‘rsatmoqda, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning YaIMlari 2013 yilda o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichi 1,6 foiz, 2017 yilda 2,3 foiz, 2021 yilda 6,7 foizni tashkil etmoqda.

Mo‘jiza ko‘rsatayotgan davlatlar YaIMi 2013 yilda o‘rtacha 6 foizni, 2017 yilda o‘rtacha 5,5 foizni, 2021 yilda o‘rtacha 7,3 foizni tashkil etmoqda.

Misolimizdagi sakkiz yil davomida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar YaIMi 3,5 foizga o‘sgan, mo‘jizakorlarda esa, 6,8 foizga o‘sgan. Unday bo‘lsa, mo‘jiza deya atalayotgan davlatlardagi insonlar nega AQSh va Evropa davlatlari hayotini havas qilib yashamoqda.

Uning sababi, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar yaratayotgan YaIM tarkibida IT dan foydalanish natijasida daromat ko‘rsatkichi yuqori, demak ishlab chiqarish tannarxi arzon.

Mo‘jizakorlarda esa, masalan Xitoy qo‘l mehnati yuqoriligini saqlab qolmoqda. Shu bois, YaIM yaratilishida mo‘jiza ko‘rsatayotgan davlatlar yashash turmush tarzi Amerika va Evropa davlatlariga nisbatan talaygina past ko‘rsatkichga ega.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, hodisa va mulohazalar natijasida quyidagicha xulosaga kelamiz.

Xulosa

Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish borasidagi tadbirlar markazi ushbu bozorni rivojlantirishning yaxlit strategiyasini shakllantirishga qaratish lozim. Kapital bozorining samarali infratuzilmasi shakllanishida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish zarur. Bozorni kengaytirishga qaratilgan amaliy harakatlarni yanada faollashtirish joiz.

Kapital bozor korporativ boshqaruv tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, uni tartibga solish sohasida xalqaro aloqalarni IT texnologiyalarini rivojlantirish kabi masalalar alohida ustuvorlik kasb etishi darkor.

So‘ngi yillarda ilm-fan, shu jumladan axborot texnologiyalari sohasida cho‘qur o‘zgarishlar sezilmoqda, uning natijasida milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida raqamli iqtisodiyotga o‘tish uchun katta zaruriat tug’ildi. Buning uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Undan axborot texnologiyalaridagi yangi imkoniyatlardan foydalanishda sinergetika usulidan foydalanish talab etiladi.

Hozirda ommaviy foydalanuvchilar uchun ushbu axborot resurslaridan interfaol foydalanishni ta’minlovchi texnologiyalar ishlab chiqilgan. Unda axborot tizimlari funktsiyalarini

kengaytirish, ma’lumotlar bazalarini turli ma’lumotlar tuzilmasini shakllantirash zarur. Ko‘p ob’ektli hujjatlar va gipermatnli muhitlar, shu jumladan gipermatnli ma’lumotlar bazalarini yaratish talab etiladi. Ularni yuritish texnologiyalari bilan parallel ravishda qayta ishlashni ta’minlash ishlarini tashkil etish lozim.

Iqtisodiyot mutaxassislari tayyorlash bilim yurtlarida sinergetika usulidan foydalanish, yani, serqirra ilm toliblarini tayyorlashni taklif etamiz.

Biz tadqiqot jarayonida quyidagi adabiyot va internet sahifalaridan foydalandik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S. N. Sayfullayev Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 7-son.
2. Ismailov X. M. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. Iqtisodiy tizimlarning rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning ta’siri.
3. Fond bozori rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o’sish bilan bog’liqligi "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 March 2023
4. Kuhn T.A. The atructure of scientific Revolutiona. Chicago, 1962. P.17.
5. Hasanov A. M. Lingviatik sinergetika: Xalqaro tajriba, tamoyillar va yondashuv shakllari dissertatsiya Toshkent-2019 9-bet
6. httpa://ru.wikipedia.org/wiki/Ekonomicheskiy rost.
7. 2013-2021 yillardagi yillik va o‘rtacha yillik o‘sish bo‘yicha Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlari.